

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA SAYLOVLARNI TASHKIL ETISH AMALYOTI VA MAVJUD MUAMMOLAR

Shahzoda Qirg`Izboyeva

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademyasi 3-kurs kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jazoni ijro etish muassasalarida saylovlarni tashkil etish amaliyoti, uning huquqiy asoslari hamda mavjud muammolar tahlil qilingan. Tadqiqotda mahkumlarning saylov huquqini ta'minlash, saylov jarayonlarini qonunchilik talablari asosida tashkil etish, saylov uchastkalarini shakllantirish va ovoz berish jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarida saylovlarni o'tkazishda uchraydigan tashkiliy-huquqiy muammolar, jumladan, mahkumlarning huquqiy xabardorligi yetarli emasligi, texnik va tashkiliy cheklovlar, saylov jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash bilan bog'liq masalalar tahlil etilgan. Maqolada xalqaro tajriba va milliy qonunchilik asosida saylov tizimini takomillashtirish, mahkumlarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash hamda saylov jarayonlarini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Jazoni ijro etish muassasalari, saylov huquqi, saylov jarayoni, mahkumlar huquqlari, ovoz berish tartibi, saylov uchastkalari, saylov qonunchiligi, konstitutsiyaviy huquqlar, saylovlarni tashkil etish, huquqiy kafolatlar, saylov tizimi, mahkumlar ishtiroki, shaffoflik va ochiqlik, huquqiy madaniyat, xalqaro tajriba, tashkiliy muammolar, texnik ta'minot, saylov nazorati, demokratik jarayonlar, inson huquqlari.*

Annotation: *This article analyzes the practice of organizing elections in correctional institutions, its legal foundations, and existing challenges. The study examines issues related to ensuring the voting rights of inmates, organizing electoral processes in accordance with legal requirements, forming polling stations, and conducting the voting procedure. It also highlights organizational and legal problems encountered during elections in correctional facilities, including insufficient legal awareness of inmates, technical and logistical constraints, and issues related to ensuring transparency and openness of the electoral process. Based on international experience and national legislation, the article develops scientific and practical recommendations aimed at improving the electoral system, ensuring the constitutional rights of inmates, and enhancing the effectiveness of election organization in correctional institutions.*

Keywords: *Penal institutions, election rights, electoral process, prisoners' rights, voting procedure, polling stations, election legislation, constitutional rights, election organization, legal guarantees, electoral system, inmate participation, transparency and openness, legal culture, international experience, organizational issues, technical support, election monitoring, democratic processes, human rights.*

Аннотация: *В данной статье анализируется практика организации выборов в учреждениях исполнения наказаний, ее правовые основы и существующие*

проблемы. В исследовании рассматриваются вопросы обеспечения избирательных прав осужденных, организации избирательного процесса в соответствии с требованиями законодательства, формирования избирательных участков и проведения процедуры голосования. Также освещаются организационно-правовые проблемы, возникающие при проведении выборов в исправительных учреждениях, включая недостаточную правовую осведомленность осужденных, технические и организационные ограничения, а также вопросы обеспечения прозрачности и открытости избирательного процесса. На основе международного опыта и национального законодательства в статье разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на совершенствование избирательной системы, обеспечение конституционных прав осужденных и повышение эффективности организации выборов в учреждениях исполнения наказаний.

Ключевые слова: Учреждения исполнения наказаний, избирательное право, избирательный процесс, права осужденных, порядок голосования, избирательные участки, избирательное законодательство, конституционные права, организация выборов, правовые гарантии, избирательная система, участие заключенных, прозрачность и открытость, правовая культура, международный опыт, организационные проблемы, техническое обеспечение, избирательный контроль, демократические процессы, права человека.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning saylov huquqi kafolatlangan. Ya'ni, fuqarolar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga ega ekani belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128-moddasida⁵⁰ fuqarolarning saylash va saylanish huquqi kafolatlangan. Ushbu moddaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqi umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov asosida amalga oshiriladi. Biroq, Konstitutsiyada ayrim holatlar uchun saylov huquqining cheklanishi ko'zda tutilgan. Xususan, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganligi sababli sudning hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonun asosida va sud qarori bilan mahrum etilishi mumkin. Mahkumlarning saylovda ishtirok etishi masalasi esa Konstitutsiya va Saylov kodeksi uyg'unligida tartibga solinadi. Konstitutsiyada saylov huquqi umumiy huquq sifatida mustahkamlangan, lekin ayrim hollarda ushbu huquq qonun bilan cheklanishi mumkin. Amaldagi tartibga ko'ra, og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxslar, hamda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganlar saylovda ishtirok etish huquqidan mahrum qilinadi. Boshqa mahkumlar esa (yengil va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun jazoni o'tayotganlar) Konstitutsiyada kafolatlangan saylov huquqi asosida ovoz berishda qatnashishi mumkin. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarning

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining

huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi. Ta'kidlanganidek, yangi tahrirdagi Bosh qomusimizga muvofiq, mahkumlarga insoniy munosabatda bo'lish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida xalqaro organlarga murojaat qilishi hamda og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etib ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlarning saylov va referendumlarda ishtirok huquqlari kafolatlandi. Shu bilan birga, jazoni ijro etish muassasalarida mehnatga jalb etilgan mahkumlarga haq to'lanadigan ish davrini ularning umumiy mehnat stajiga ijtimoiy soliq to'langan davrni qo'shib hisoblash amaliyoti joriy etildi. Mazkur qonun loyihasiga ko'ra, Jinoyat-ijroiya kodeksiga ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar bilan insonparvarlik tamoyili asosida munosabatda bo'lish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishini ta'minlashga oid bir qator normalar kiritilmoqda. Jumladan, mazkur Kodeksning 9-moddasiga "O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyasiga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etish"⁵¹ to'g'risidagi qo'shimcha norma kiritilmoqda. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 9-moddasi (Mahkumlarning asosiy huquqlari)da mahkumlarning jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyatiga, boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalariga murojaat etish huquqi berilgan bo'lib, mahkumlar tomonidan inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro tashkilotlarga murojaat qilish huquqi qonunchilik normalarida belgilanmagan edi. Qonun loyihasi bilan aynan shu moddaga qo'shimchalar kiritish orqali og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etib ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlarning saylov va referendumlarda ishtirok etish huquqi belgilab berilmoqda. Shuningdek, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakiliga (Ombudsman) va Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakiliga (Bolalar ombudsmani) maxsus murojaat qutisi orqali murojaat yo'llashiga doir huquqi mustahkamlanmoqda. Jinoyat ijroiya kodeksining 9-moddasida mahkumlarning huquqlari keltirilgan bo'lib unda ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar " Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha o'g'ir bo'lmagan jinoyatlar sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari saylovlarda hamda referendumda ishtirok etish huquqiga ega"⁵². O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 9-moddasida nazarda tutilgan ushbu qoida jinoyat-ijroiya huquqining muhim instituti — mahkumlarning huquqiy maqomini belgilash doirasida alohida o'rin tutadi. Mazkur norma orqali qonun chiqaruvchi organ jazoni ijro etish jarayonida shaxsning huquq va erkinliklari mutlaq tarzda emas, balki ma'lum chegaralar doirasida saqlanib qolishini e'tirof etadi. Ushbu qoidaning mazmun-

⁵¹ Jinoyat ijroiya kodeksi

⁵² Jinoyat ijroiya kodeksi

mohiyatini chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, avvalo unda subyektlar doirasi aniq chegaralanganini ko'ramiz, ya'ni saylov huquqining saqlab qolinishi barcha ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga emas, balki faqatgina ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan hamda uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar sodir etganligi uchun hukm qilingan mahkumlarga nisbatan tatbiq etiladi, bu esa differensial yondashuv orqali jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi bilan shaxsning siyosiy-huquqiy maqomi o'rtasida muvozanat o'rnatishga xizmat qiladi. Mazkur norma konstitutsiyaviy huquqlar tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, xususan fuqarolarning davlat hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan va Jinoyat-ijroiya kodeksidagi ushbu qoida aynan shu umumiy prinsipning maxsus huquqiy sharoitlarda amal qilish shakli sifatida namoyon bo'ladi, demak jazoni o'tash holati shaxsni to'liq ravishda siyosiy-huquqiy maydondan chiqarib yubormaydi, balki uning ayrim huquqlari qonun bilan asoslangan tarzda cheklanadi yoki saqlab qolinadi. Shu bilan birga, norma mazmunida siyosiy huquqlarning konkret shakllari ham aniq ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra mahkumlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovida, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari — xalq deputatlari Kengashlari saylovlarida, shuningdek referendumlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi, bu esa davlatning demokratik legitimatsiya mexanizmlarida ushbu toifadagi mahkumlar ham ishtirok etishini anglatadi, ya'ni ular davlat hokimiyatining shakllanishiga bilvosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatini saqlab qoladi. Mazkur qoida jinoyat-ijroiya siyosatining insonparvarlik yo'nalishini ham aks ettiradi, chunki jazoni ijro etish faqat jazolash funksiyasini emas, balki tuzatish va qayta ijtimoiylashtirish funksiyasini ham bajaradi, saylov huquqining saqlab qolinishi esa mahkumning o'zini jamiyatdan butunlay uzilgan subyekt emas, balki fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismi sifatida his etishiga xizmat qiladi va bu uning ijtimoiy moslashuvi hamda kelgusida huquqbuzarlikdan tiyilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, mazkur norma xalqaro huquq standartlari bilan hamohang bo'lib, inson huquqlarini himoya qilishga doir hujjatlarda saylov huquqini cheklash faqat zarur va asoslangan hollarda qo'llanilishi lozimligi ta'kidlanadi, shu nuqtai nazardan O'zbekiston qonunchiligida faqat muayyan toifadagi mahkumlarga nisbatan ushbu huquqni saqlab qolish mexanizmining joriy etilishi proporsionallik prinsipiga mos keladi. Amaliy jihatdan esa ushbu huquq maxsus tartib-taomillar orqali amalga oshiriladi, ya'ni jazoni ijro etish muassasalarida saylov uchastkalari tashkil etilishi yoki qonunchilikda belgilangan boshqa mexanizmlar orqali mahkumlarning ovoz berishi ta'minlanadi, bu esa normaning deklarativ emas, balki real ishlaydigan huquqiy institut ekanligini ko'rsatadi, xulosa qilib aytganda esa ushbu qoida mahkumlarning huquqiy maqomini belgilashda differensial yondashuvni, konstitutsiyaviy huquqlar ustuvorligini hamda jazoni ijro etish tizimining insonparvar va ijtimoiy yo'naltirilgan mohiyatini ifodalaydi. Jazoni ijro etish muassasalarida saylov jarayonini tashkil etish va o'tkazish tartibi mahkumlarning saylov huquqlarini ta'minlash, xavfsizlikni saqlash hamda saylov jarayonining oshkoraligi va qonuniyligini

kafolatlashga qaratilgan maxsus huquqiy mexanizm hisoblanadi. O'zbekiston saylov qonunchiligiga muvofiq, bunday muassasalarda saylov uchastkalari saylovga belgilangan muddatdan oldin okrug saylov komissiyasi qarori asosida tashkil etiladi. Ushbu qaror muassasa ma'muriyati tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida qabul qilinadi va saylov uchastkasi tegishli saylov okrugiga kiritiladi. Jazoni ijro etish muassasalarida uchastka saylov komissiyasi saylovga belgilangan muddatdan oldin okrug saylov komissiyasi tomonidan besh-o'n to'qqiz nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi. Komissiya tarkibiga rais, rais o'rinbosari va kotib kiradi, ayrim hollarda esa kam sonli tarkibda rais va kotib saylanishi mumkin. Komissiya a'zoliciga nomzodlar asosan muassasa xodimlari orasidan, zarur hollarda esa jamoatchilik vakillari orasidan tavsiya etiladi va ularning tarkibi okrug saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Komissiyaning asosiy vazifalari saylov jarayonini tashkil etish, ovoz berishni nazorat qilish va natijalarni rasmiylashtirishdan iborat bo'ladi. Saylovchilar ro'yxati muassasa ma'muriyati tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida uchastka saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Ro'yxatga har bir saylovchining shaxsiy ma'lumotlari, jumladan familiyasi, ismi, otasining ismi va tug'ilgan sanasi kiritiladi. Har bir saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi mumkin. Ro'yxatlar markazlashgan elektron tizimga kiritilib, zarur hollarda saylovga qadar yangilanadi. Saylovchilar ro'yxati saylovdan oldin fuqarolar uchun tanishish imkoniyati bilan ochiq bo'lishi ta'minlanadi va har bir shaxs undagi xato yoki noaniqlik yuzasidan shikoyat qilish huquqiga ega bo'ladi. Ovoz berish jarayoni maxsus jihozlangan binolarda yashirin ovoz berish tamoyiliga qat'iy rioya etilgan holda tashkil qilinadi. Binolarda yetarli miqdorda kabinalar, saylov qutilari va byulletenlar uchun joylar tayyorlanadi. Saylovchi ro'yxatda imzo qo'ygach, unga saylov byulleteni beriladi va u yashirin kabinada o'z tanlovini belgilaydi. So'ngra byulleten saylov qutisiga tashlanadi. Ovoz berish jarayoni muassasa ichki tartib-qoidalari va xavfsizlik talablari hisobga olingan holda kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Saylov jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida kuzatuvchilar, siyosiy partiyalar vakillari hamda ommaviy axborot vositalari vakillarining ishtirok etishiga ruxsat etiladi. Ular saylov jarayonini kuzatish huquqiga ega bo'lib, ularning muassasaga kirishi oldindan kelishilgan tartibda amalga oshiriladi. Muassasa ma'muriyati ularning xavfsizligini va ichki tartibga rioya etilishini ta'minlaydi. Saylovoldi tashviqoti jarayonida nomzodlar va ularning vakillari uchun saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish va ma'lumot berish uchun teng sharoitlar yaratiladi. Biroq saylov kuni va undan oldingi bir kun davomida har qanday tashviqot faoliyati taqiqlanadi. Ovoz berish yakunlangach, saylov qutilari ochiladi va ovozlar uchastka saylov komissiyasi tomonidan kuzatuvchilar ishtirokida hisoblanadi. Natijalar bayonnoma bilan rasmiylashtirilib, tegishli saylov okruglariga yuboriladi va yuqori saylov organlari tomonidan tasdiqlanadi. Saylov natijalari rasmiylashtirilgach, uchastka saylov komissiyasi o'z faoliyatini yakunlaydi. Umuman olganda, jazoni ijro etish muassasalarida saylov jarayonini tashkil etish tartibi mahkumlarning konstitutsiyaviy saylov huquqlarini ta'minlash, xavfsizlikni saqlash va demokratik tamoyillarga rioya

qilishga qaratilgan kompleks tizim bo'lib, u ochiqlik, qonuniylik va proportsionallik tamoyillariga asoslanadi. Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida saylov uchastkalari, qoida tariqasida, kamida yigirma nafar va ko'pi bilan uch ming nafar saylovchidan oshmagan holda tuziladi. Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida saylov uchastkalari saylovga kamida oltmish kun qolganida, ayrim hollarda esa istisno tariqasida, saylovga kamida yetti kun qolganida tuziladi. Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylari rahbarlarining taqdimnomasiga asosan saylov uchastkalari okrug saylov komissiyasi qarori bilan tuziladi. Bu saylov uchastkalari ular joylashgan hududdagi saylov okruglariga kiradi. Ayrim hollarda, manzil-koloniya ma'muriyatining tegishli okrug saylov komissiyasiga bergan taklifiga asosan mazkur muassasalarda saqlanayotgan saylovchilar ko'chma saylov qutisi orqali saylovchilarning turgan joyida ovoz berishi uchun u joylashgan hududdagi saylov uchastkasiga birlashtirish to'g'risida okrug saylov komissiyasining qarori qabul qilinishi mumkin. Uchastka saylov komissiyasi saylovga kamida qirq kun qolganida besh — o'n to'qqiz nafar a'zodan, shu jumladan rais, rais o'rinbosari va kotibdan iborat tarkibda okrug saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Agar komissiya yetti nafargacha a'zodan iborat tarkibda tuzilsa, rais va kotib saylanadi. Zarur bo'lgan hollarda, uchastka saylov komissiyasining son tarkibi o'zgartirilishi mumkin. Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarining rahbari tomonidan uchastka saylov komissiyasi a'zolidigiga nomzodlar mazkur muassasa xodimlari orasidan okrug saylov komissiyasiga tasdiqlash uchun tavsiya etiladi. Zarurat tug'ilganida, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarining rahbari tomonidan Saylov kodeksining tegishli moddasiga muvofiq boshqa shaxslar va jamoatchilik vakillari ham uchastka saylov komissiyasi a'zolidigiga nomzod sifatida tavsiya etilishi mumkin. Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida saylov uchastkasi saylovga kamida yetti kun qolganda tuzilsa, okrug saylov komissiyasiga saylov uchastkasini tuzish to'g'risida taqdimnoma bilan birga uchastka saylov komissiyasi a'zolidigiga nomzodlar ham tasdiqlash uchun tavsiya etiladi. Uchastka saylov komissiyasining shaxsiy tarkibi tegishli okrug saylov komissiyasining qarori bilan tasdiqlanadi. Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylaridagi maxsus ajratilgan binolarda yashirin ovoz berish uchun yetarli miqdorda kabinalar yoki xonalar tayyorlangan bo'lishi, saylov byulletenlari berish uchun joy ajratilgan va saylov qutilari o'rnatilishi kerak. Saylov qutilari ularning yoniga ovoz beruvchilar albatta yashirin ovoz berish kabinolari yoki xonalaridan o'tib boradigan qilib joylashtiriladi. Binoni jihozlash va unda zarur tartibni saqlab turish mas'uliyati muassasa ma'muriyati va uchastka saylov komissiyasi zimmasida bo'ladi. Qamoqda saqlash joylarida ushlab turilgan hamda qamoqqa olingan, shuningdek jinoyat sodir etganligi uchun sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchastkalaridagi saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sud hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish

huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sud qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Boshqa hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi. Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchastkalari bo'yicha saylovchilar ro'yxatlari mazkur muassasalar rahbarlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida uchastka saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Saylovchilar ro'yxatiga har bir saylovchining familiyasi, ismi, otasining ismi va tug'ilgan sanasi kiritiladi. Har bir saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi mumkin. Ichki ishlar organlari markazlashgan tartibda qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchastkalaridagi saylovchilar haqidagi ma'lumotlarni saylovga kamida bir oy qolgunga qadar tegishli markaziy organlarga saylovchilar yagona elektron ro'yxatiga tuzatishlar kiritish uchun yuboradi. Agarda mazkur muassasalarda tuzilgan saylov uchastkalaridagi saylovchilar ro'yxatida o'zgarishlar amalga oshirilsa, bu ma'lumotlar ham saylovga kamida besh kun qolgunga qadar yetkazib beriladi. Manzil-koloniyalarida saylov uchastkalari tuzilmagan holatlarda, ular birlashtirilgan uchastka saylov komissiyalariga muassasadagi saylovchilar haqidagi ma'lumotlar saylovga kamida yetti kun qolganda taqdim etiladi. Saylovga uch kun qolganida fuqarolarga saylovchilar ro'yxati bilan tanishish imkoniyati ta'minlanadi. Har bir fuqaro saylovchilar ro'yxatidagi xato yoki noaniqlik bo'yicha uchastka saylov komissiyasiga shikoyat qilish huquqiga ega bo'lib, komissiya yigirma to'rt soat ichida murojaatni ko'rib chiqishi shart. Saylov komissiyalari faoliyatining oshkoraligini ta'minlash maqsadida saylov jarayonining barcha bosqichlarida nomzodlar, siyosiy partiyalar vakillari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari kuzatuvchilari ishtirok etishi mumkin. Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylaridagi saylov uchastkalariga kuzatuvchilar borishi oldindan xabardor qilinadi va ularning kirib-chiqishi ta'minlanadi. Muassasa ma'muriyati ularning xavfsizligi va tartib-qoidalarga rioya etilishini ta'minlaydi. Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida saylov kampaniyasi jarayonida uchastka saylov komissiyalari ma'muriyat bilan birgalikda saylovchilarga saylov tartibi, nomzodlar va saylov jarayonlari haqida ma'lumot beradi. Nomzodlarga saylovoldi tashviqotini amalga oshirish uchun teng sharoitlar yaratiladi. Saylov kuni va undan bir kun oldin tashviqotga yo'l qo'yilmaydi. Ovoz berish jarayonida saylovchilar kichik guruhlariga bo'linib ovoz berish binosiga kiritiladi. Saylovchi ro'yxatga imzo qo'yganidan so'ng unga byulleten beriladi. Saylovchi yashirin ovoz berish kabinasida o'z tanlovini belgilaydi va byulletenni saylov qutisiga tashlaydi. Saylov uchastkalarida ovoz berish barcha saylovchilar ishtirok etib bo'lgach yakunlanishi mumkin, biroq saylov qutilari soat yigirma nol nol dan oldin ochilmaydi va ovozlar sanalmaydi. Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan uchastka saylov komissiyalari saylov natijalari tasdiqlangandan so'ng o'z faoliyatini tugatadi. Mazkur nizom ichki ishlar organlari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksiga muvofiq, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok

etish huquqiga ega. Bu jarayon demokratik tamoyillarga asoslanib, yashirin, teng va umumiy ovoz berish prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Jazoni ijro etish muassasalarida saylov uchastkalariga saylovga kamida 60 kun qolganda, alohida hollarda esa 7 kun qolganda okrug saylov komissiyalari tomonidan tashkil etiladi. 2024-yilgi saylovlarda qamoqda saqlash joylarida jami 48 ta saylov uchastkasi tuzilgan bo'lib, uchastka saylov komissiyalari muassasa ma'muriyati va jamoatchilik vakillaridan iborat tarkibda shakllantirilgan. Ushbu jarayonda jami 354 nafar xodim ishtirok etgan. Saylovchilarning yagona elektron ro'yxati (SYER) orqali mahkumlarning ma'lumotlari tekshiriladi va saylov kuni 18 yoshga to'lgan fuqarolar ovoz berish huquqiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etganlar hamda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar saylov ro'yxatiga kiritilmaydi. Qolgan barcha mahkumlar saylovda ishtirok etish huquqiga ega hisoblanadi. Saylov jarayonida mahkumlarga to'liq axborot beriladi. Nomzodlar bilan uchrashuvlar tashkil etilib, ularning saylovoldi dasturlari bilan tanishish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, muassasalarda saylovga oid ma'lumotlar va saylov kodeksi normalari ko'rinadigan joylarga joylashtiriladi. Saylov kuni muassasa ma'muriyati mahkumlarning saylov uchastkalariga xavfsiz kirib-chiqishini ta'minlaydi. Ovoz berish maxsus yashirin ovoz berish kabinalarida amalga oshirilib, har bir saylovchining o'z irodasini erkin ifoda etishiga sharoit yaratiladi. Saylov jarayoni Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va prokuratura organlari tomonidan nazorat qilinadi. Bu esa jarayonning qonuniyligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, saylovlar xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, jazoni ijro etish muassasalarida saylovlarni tashkil etish mahkumlarning fuqarolik huquqlarini ta'minlash va ularning jamiyatga qaytish jarayonini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bu tizim demokratik tamoyillar va inson huquqlariga hurmat asosida amalga oshiriladi. Jazoni ijro etish muassasalarida saylov jarayonini tashkil etish va o'tkazish xalqaro miqyosda inson huquqlarini ta'minlash tamoyillariga asoslanadi. Asosiy yondashuv shundan iboratki, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar ham, agar sud tomonidan alohida ravishda saylov huquqidan mahrum etilmagan bo'lsa, fuqarolik huquqlarining muhim qismi sifatida saylash huquqini saqlab qoladi. Xalqaro huquqiy asoslar bu borada muhim o'rin tutadi. Jumladan, United Nations tomonidan qabul qilingan Universal Declaration of Human Rightsning 21-moddasida har bir inson davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqiga ega ekani belgilangan. Shuningdek, International Covenant on Civil and Political Rightsning 25-moddasida saylovlarda qatnashish umumiy va teng huquq asosida amalga oshirilishi lozimligi qayd etilgan. Council of Europe doirasida qabul qilingan European Convention on Human Rights va uning protokollari ham saylov huquqlarini xalqaro darajada himoya qiladi. Xalqaro sud amaliyoti ham ushbu masalada muhim ahamiyatga ega. Xususan, European Court of Human Rights tomonidan ko'rib chiqilgan Hirst v United Kingdom ishida barcha mahkumlarga nisbatan umumiy saylov taqiqini qo'llash inson huquqlariga zid deb topilgan. Ushbu sud amaliyotiga ko'ra, saylov huquqiga qo'yiladigan

har qanday cheklov individual, asoslangan va mutanosib bo'lishi kerak, ya'ni barcha mahkumlarni avtomatik tarzda saylovdan chetlatish mumkin emas. Xalqaro standartlarga muvofiq jazoni ijro etish muassasalarida saylov jarayonini tashkil etish bir qator muhim tamoyillarga asoslanadi. Avvalo, mahkumlarning saylov huquqi imkon qadar saqlab qolinadi va faqat sud qarori yoki og'ir jinoyatlar bilan bog'liq hollarda cheklanishi mumkin. Shuningdek, qamoqxonalarda alohida saylov uchastkalari tashkil etiladi yoki ko'chma saylov qutilari qo'llaniladi, bunda saylov komissiyalarining mustaqilligi ta'minlanishi zarur. Ovoz berish jarayoni erkin va yashirin tarzda o'tkazilishi shart bo'lib, mahkumlarga nisbatan har qanday bosim yoki majburlash qat'iy taqiqlanadi. Bundan tashqari, mahkumlarga nomzodlar va siyosiy jarayonlar haqida yetarli axborot berilishi, ya'ni axborot olish erkinligi ta'minlanishi lozim. Saylovlarning oshkoraligi va adolatligini ta'minlash maqsadida esa milliy va xalqaro kuzatuvchilarning monitoring olib borishiga ruxsat etiladi. Turli davlatlar amaliyoti bu borada turlicha yondashuvlarni ko'rsatadi. Yevropa davlatlarining aksariyatida, jumladan Norvegiya va Daniyada mahkumlarning katta qismi saylovda qatnashish huquqiga ega. Buyuk Britaniyada ayrim cheklovlar mavjud bo'lsa-da, Hirst v United Kingdom qaroridan so'ng bu masala yuzasidan islohotlar muhokama qilingan. AQShda esa saylov huquqi shtatlarga qarab farq qiladi va ayrim hududlarda mahkumlar hamda hatto sobiq mahkumlar ham ushbu huquqdan mahrum etilishi mumkin. Kanadada esa *Sauvé v Canada (Chief Electoral Officer)* qaroridan keyin barcha mahkumlarga saylov huquqi berilgan. Umuman olganda, xalqaro miqyosda saylov huquqi fundamental siyosiy huquq sifatida e'tirof etiladi va ozodlikdan mahrum etish bu huquqni avtomatik tarzda bekor qilmaydi. Shu sababli, unga qo'yiladigan har qanday cheklovlar qonuniy, asoslangan va mutanosib (proportsional) bo'lishi zarur. 2024-yilgi Prezident saylovida ilk bor uncha og'ir bo'lmagan yoki ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarni sodir etgani uchun jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar ham qatnashadi. Xususan, bugun qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida saylovda ovoz berish huquqiga ega 8 203 nafar saylovchi (569 nafar ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, 1 300 nafar uncha og'ir bo'lmagan, jami 1 869 nafar; 6 334 nafar tergov hibxonalarida) ovoz berish huquqidan foydalanish imkoniyatiga ega. Saylov qonunchiligiga ko'ra, saylovga 60 kun qolganda qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylaridagi saylovchilarning ovoz berishi uchun tergov hibxonalarida – 12 ta, jazoni ijro etish koloniyalarida – 4 ta va manzil-koloniyalarida – 2 ta, jami 18 ta saylov uchastkalari tashkil etildi. Mazkur saylov jarayonlarida nomzodlar, kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etish huquqiga ega va ular to'siqsiz ichkariga qo'yiladi. IIV polkovnigi JIEM va tergov hibxonalaridagi saylovchilarning ovoz berish huquqi to'liq ta'minlanishini ta'kidladi. Uning aytishicha, hududiy saylov uchastkalari orqali saylovda ishtirok etadigan 1 660 nafar mahkumdan 1 274 nafari 23 ta manzil-koloniyadan transport orqali hududiy saylov uchastkalariga olib boriladi, 15 ta yopiq turdagi muassasalarda saqlanayotgan 386 nafar mahkumga esa saylov qutilari

olib kelinadi. Eslatib o'tamiz 2019 yilning 4 sentabridan saylovlar to'g'risidagi qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishga muvofiq, mahkumlarga ham saylovlarda ishtirok etish huquqi berilgandi. 2019 yilgi parlament saylovlarida 3 619 nafar mahkum ovoz berish huquqidan foydalangan. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) Feruza Eshmatova Saylov kodeksining 5-moddasiga ko'ra sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgani uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etmasligi, saylov kuni 18 yoshga to'lgan, qamoqda saqlash joylarida ushlab turilgan hamda qamoqqa olingan shuningdek, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar sodir etgani uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar esa ovoz berish huquqiga egaligini ta'kidlab o'tdi. Saylov qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikning belgilanishi saylovlarning adolatli va shaffof o'tishiga ko'maklashadi. Saylovlarning demokratik prinsiplar asosida tashkil etilishi, Saylov kodeksi talablariga rioya etilishini ta'minlash muhim jarayon hisoblandi. Sababi xalq o'zi tanlagan nomzodga ovoz berishi, ovozlarni sanab chiqish, protokollashtirish bosqichlarida qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida saylov qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining V¹ bobi⁵³ saylov va referendumni tashkil etish hamda o'tkazish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik masalalariga bag'ishlangan. Birinchidan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 51²-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o'tkazuvchi komissiyalarning faoliyatiga aralashish, shuningdek ularning ishiga to'siqlarni yuzaga keltirish, — mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ikkinchidan, mazkur Kodeksning 51³-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o'tkazuvchi komissiyalarning qarorlarini ijro etmaslik, shuningdek ularning murojaatlarini ko'rib chiqishni g'ayrihuquqiy ravishda rad etish, ularni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, — mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Uchinchidan, Kodeksning 51⁴-moddasiga ko'ra, nomzodning, ishonchli vakilning, kuzatuvchining yoki siyosiy partiya vakolatli vakilining huquqlarini buzish— mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. To'rtinchidan, Kodeksning 51⁵-moddasiga ko'ra, saylovoldi tashviqotini, referendumga qo'yilgan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish shartlari va tartibini buzish — bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Beshinchidan, Kodeksning 51⁶-moddasiga ko'ra, nomzodlar, siyosiy partiyalar

⁵³ MJTK

to'g'risida yolg'on ma'lumotlarni tarqatish — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Oltinchidan, Kodeksning 51⁷-moddasiga ko'ra, saylovga yoki referendumga tayyorgarlik ko'rish va saylov yoki referendum o'tkazish jarayonida axborot hamda tashviqot materiallarini qasddan yo'q qilib yuborish yoki ularga qasddan shikast yetkazish — bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Yettinchidan, Kodeksning 51⁸-moddasiga ko'ra, saylovni yoki referendumni moliyalashtirish tartibini buzish — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Sakkizinchidan, Kodeksning 51⁹-moddasiga ko'ra, jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, saylov yoki referendum natijalari taxminlarini chop etish (e'lon qilish) tartibini buzish — mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining VII bobi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarga bag'ishlangan. Jinoyat kodeksining 146-moddasi "Saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish"⁵⁴ deb nomlangan. Unga muvofiq, saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish vaqtida mansabdor shaxslar, siyosiy partiyalar yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillari, tashabbuskor guruhlar yoki saylov yoxud referendum komissiyalari a'zolari tomonidan ovoz berishning yashirinligini buzish, saylov yoki referendum hujjatlarini qalbakilashtirish, saylov yoki imzo varaqalariga soxta yozuvlar kiritish, berilgan ovozlarni ataylab noto'g'ri hisoblash — eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Jinoyat kodeksining saylov huquqining yoki ishonchli vakil vakolatlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish holatlariga doir 147-moddasiga muvofiq, fuqarolarning deputat yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash yoki saylanish, saylovoldi targ'iboti olib borish huquqlarini, deputatlikka yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod shaxsning ishonchli vakillari o'z vakolatlarini erkin amalga oshirishlariga, shuningdek fuqarolarning referendumda erkin ishtirok etishlariga zo'rlik ishlatish, qo'rqitish, aldash yoki og'dirib olish yo'li bilan to'sqinlik qilish — to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Xulosa qilib aytganda, avvalambor, saylovchilar, fuqarolik jamiyati institutlari, saylov jarayoni ishtirokchilari saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishdagi huquqbuzarliklar to'g'risida tegishli organlarni xabardor etishi erkin va

⁵⁴ Jinoyat kodeksi

demokratik saylovlarni xalqaro standartlar darajasida o'tishiga ko'maklashadi. Saylov jarayonida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga ko'ra javobgarlikki tortiladi. Ayni chog'da, saylov qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikka oid normalarni fuqarolik jamiyati institutlari, saylov jarayoni ishtirokchilari hamda saylovchilarning bilishi va unga rioya etishi Saylov kodeksi normalariga og'ishmay amal qilishga, fuqarolarning siyosiy huquqlarni demokratiya prinsiplar asosida ta'minlashga olib keladi. Saylovlar – fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlovchi siyosiy huquqi sanaladi. Bejiz, saylov huquqi sohasidagi tamoyillar va standartlar 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida aks etmagan. Qolaversa, hozirda erkin saylov tashkil qilinishi va o'tkazilishini ta'minlash sohasida 20 dan ortiq universal va mintaqaviy xalqaro shartnomalar amal qiladi. Umuman olganda demokratik saylovlar fuqarolik va siyosiy huquqlarning tantanasi sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, ushbu Deklaratsiyada xalq irodasi hukumat vakolatining asosi bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Ya'ni, inson huquqlari va demokratiya chambarchas bog'liq bo'lib, saylovlar demokratiyaning markazida bo'ladi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktda ham saylov jarayoni xalq siyosiy irodasining ifodasi ekanligi va saylov jarayonlarida turli g'oyalarni ifoda etish hamda ilgari surish huquqi qat'iy himoya qilinishi kerakligi belgilangan. Aniqroq qilib aytganda, saylovchilarning so'z va fikr erkinligi huquqlarining ta'minlanishi orqali ularga to'liq va aniq ma'lumot olish imkoni yaratiladi. Qayd etish lozimki, Konstitutsiyamizning 128-moddasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi", deb belgilangan. Fuqarolarning bu huquqini to'la ro'yobga chiqarish uchun so'nggi yillarda saylovga oid qonunchilikni xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada xorijda vaqtincha yashab turgan mehnat muhojirlari, talabalar va boshqa yurtdoshlarimiz saylovda ishtirok etishi uchun keng sharoitlar yaratildi. Ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarga ovoz berish imkoniyati yaratildi. Aytish joizki, ushbu normalar ba'zi demokratik davlatlar qonunchiligida ham mavjud emas. Xalqaro ekspertlar saylash huquqiga ega bo'lgan va harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalarda saqlanayotgan shaxslarni qo'rqitilishi mumkinligi nuqtai nazaridan juda zaif elektorat segmenti deb hisoblaydi. Shuning uchun ham Ombudsman penitensiar muassasalarga monitoring tashriflarini amalga oshirganda saylovchilarning hech qanday tazyiq va moneliksiz yashirin ovoz berish huquqlari ta'minlanishi nuqtai nazaridan saylov uchastkasining belgilangan talablarga muvofiq jihozlanganini o'rgandi. Shuningdek, saylovchilarning tanlash, nomzodlarning esa teng targ'ibot qilish huquqlari ta'minlanishi maqsadida monitoring jarayonida nomzodlarga, ularning ishonchli vakillariga, siyosiy partiyalarga fuqarolar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali saylovoldi tashviqoti uchun teng sharoitlar yaratilishi kabi holatlar ham diqqat e'tiborimizda bo'ladi. Belgilangan tartibga ko'ra, saylash huquqiga ega mahkumlar

qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchastkalaridagi saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi. Saylovchilarning ro'yxatlari esa mazkur muassasalar rahbarlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida uchastka saylov komissiyasi tomonidan tuziladi va saylovchilar yagona elektron ro'yxatiga kiritiladi. Agarda harakatlanish erkinligi cheklangan muassasalarda mahkumning saylash huquqi bo'la turib unda ishtirok etishiga to'sqinlik qilish holatlari bo'yicha murojaatlar kelib tushsa, ular darhol joyiga chiqib o'rganiladi. Saylov kuni qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarining ma'muriyati mahkumlarning saylov uchastkasiga kirib chiqishi va xavfsizligini ta'minlashi, shuningdek, ichki tartib-qoidalariga rioya etishi uchun mas'ul hisoblanadi. Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan uchastka saylov komissiyalari mazkur muassasalarning ma'muriyati bilan birgalikda saylovchilarni saylov to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, saylovga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish jarayonlari, saylov o'tkazish vaqti va tartibi hamda nomzodlar haqida xabardor qilib boradi. Shuningdek, nomzodlarga, ularning ishonchli vakillariga, siyosiy partiyalarga fuqarolar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali saylovoldi tashviqoti uchun teng sharoitlar yaratib berilishi lozim. Shundagina mahkumlar nomzodlar tomonidan ko'tarilayotgan tashabbuslar asosida ulardan birini tanlaydi va saylash huquqidan foydalanadi. Saylov kodeksining 7-moddasida yashirin ovoz berish saylovchining xohish-irodasi ustidan har qanday tarzda nazorat qilish imkoniyatini istisno etadigan tegishli sharoitlarni yaratish orqali ta'minlanishi belgilangan. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksida O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolarining, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning huquq va erkinliklar tengligi kafolatlangan. Shuningdek, O'zbekiston BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan bo'lib, uning 29 moddasida ishtirokchi davlatlar nogironlarning siyosiy huquqlarini va boshqalar bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini kafolatlashi va nogironlar boshqalar bilan teng ravishda siyosiy va ijtimoiy hayotda bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali samarali va har taraflama ishtirok etishlari, shu jumladan saylash va saylanish huquqlari va imkoniyatlariga ega bo'lishlarini, jumladan, ovoz berish tartiblari, binolari va materiallari anglash va foydalanish uchun mos va oson bo'lishini ta'minlash majburiyatlarini olishi belgilangan. Nogironligi bo'lgan shaxslar saylovlarda ishtirok etish orqali nafaqat o'z siyosiy huquqlaridan foydalanadilar, balki bu orqali o'zlarini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladilar. Taraqqiy etgan demokratik huquqiy davlatlarda saylovlarning adolatli o'tishi har bir saylovchining ovoz berish jarayonida ishtirok etishini ta'minlash borasida yaratilgan shart-sharoitlarning saylovchi-fuqarolar uchun qulayligi, kengligi hamda huquqiy asosga ega ekani bilan belgilanadi. O'zbekiston milliy saylov qonunchiligida ham barcha saylovchilarga ovoz berish jarayonida to'sqinliksiz ishtirok etishini ta'minlash borasida muhim qoidalar belgilangan. Ulardan biri saylovchilarning muddatidan oldin ovoz berish huquqi institutidir. Qayd etish lozimki, saylovlarda muddatidan oldin ovoz berish tartibi ilg'or xorijiy davlatlarda, xususan, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Finlyandiya,

Norvegiya, Polsha, Ruminiya va boshqa ko'plab davlatlarda mavjud. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 57-moddasiga muvofiq, saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchi muddatidan oldin ovoz berish huquqiga egadir. Muddatidan oldin ovoz berish saylovga o'n kun qolganida boshlanadi va saylovga uch kun qolganida tugallanadi.

Saylovda O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi konsullik ro'yxatida turgan yoki turmaganligidan qat'iy nazar xorijda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarimiz uchun o'sha davlatlarda tashkil etilgan saylov uchastkasida ovoz berish imkoniyati yaratiladi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ushbu saylov jarayonlarida fuqarolarning saylash huquqini ta'minlash, ularga belgilangan tartib-taomillar asosida sharoitlar yaratish va saylovni ochiq, adolatli va albatta teng saylov huquqi asosida o'tkazilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu jarayonlar O'zbekistonning jahonda tutgan o'rnini, xalqaro nufuzi va imidjiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Fuqarolar ham saylash huquqini amalga oshirishlari uchun davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlardan unumli foydalanib, o'z huquqidan faol foydalanishi, mamlakat kelajagiga befarq bo'lmasligi lozim. Saylovlarda o'z ovozingiz bilan ishtirok eting. Zero, bu Sizning Bosh qomusimizda aks etgan siyosiy huquqingizdir. Xulosa qilib aytganda, jazoni ijro etish muassasalarida saylov jarayonini tashkil etish va o'tkazish tartibi fuqarolarning asosiy siyosiy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan muhim institut hisoblanadi. Xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan Universal Declaration of Human Rights va International Covenant on Civil and Political Rights saylov huquqini fundamental huquq sifatida e'tirof etadi va uni asossiz cheklashga yo'l qo'ymaslik zarurligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, jazoni ijro etish muassasalarida saylovlarni o'tkazishda asosiy tamoyillar qonuniylik, tenglik, erkinlik, yashirin ovoz berish va shaffoflik qat'iy ta'minlanishi lozim. Mahkumlarning saylov huquqi imkon qadar saqlanishi, faqat qonunda belgilangan asoslar bo'yicha va individual yondashuv asosida cheklanishi kerak. O'zbekiston amaliyotida saylov jarayonining tashkiliy jihatlari (maxsus uchastkalar tashkil etish, yashirin ovoz berishni ta'minlash va boshqalar) xalqaro standartlarga muayyan darajada mos keladi. Biroq ayrim toifadagi mahkumlar uchun mavjud umumiy cheklovlar xalqaro talablarga to'liq mos kelmasligi mumkin. Umuman olganda, jazoni ijro etish muassasalarida saylovlarni tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, xususan, saylov huquqini cheklashda mutanosiblik va individuallik tamoyillarini kuchaytirish, shuningdek, axborotga kirish va kuzatuv imkoniyatlarini kengaytirish orqali xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi
- Ichki ishlar vazirining 174-sonli buyrug'i

➤ Jinoyat ijroiya huquqi darsligi: S.Niyozova, K.Hakimova, D.Israilova, Sh.Xaydarova, Z.Shamshiddinov

➤ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: O'zbekiston, 2011.

➤ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2021.

➤ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlanishi. Nutqlar to'plami.

➤ Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent: TDYU, 2020.

➤ Saidov A.X. Inson huquqlari nazariyasi. Toshkent: Adolat, 2019.

➤ Internet resurslar: www.lex.uz – O'zbekiston qonunchilik bazasi.

➤ Internet saytlar: <http://www.https://uz.wikipedia>.

➤ <http://www.advice.uz>

➤ <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/makumlarning-uulari>

www.norma.uz